

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“MUSIQA TA'ILIMI “KAFEDRASI

Fan : “ Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi “

# KURS ISHI

**Mavzu:** “Oltinchi sinf o'quvchilarini mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali o'zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg'otish.”

**Bajardi:** 401 guruh talabasi. A.Vahobov

**Ilmiy rahbar :** B.Boltyev

**Samarqand - 2017**

“Oltinchi sinf o’quvchilarini mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali o’zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg’otish”.

Reja

Kirish

Asosiy qism

1. Mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali o’zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg’otishning nazariy asoslari.
2. Mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali o’zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg’otishning uslublari.
3. Oltinchi sinf o’quvchilarda o’zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg’otish -ning o’ziga xos uslublari.

Xulosa.

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati.

Ilovalar.

## Kirish

. Yurtimizda azaldan madaniyat, adabiyot va betakror o'z xalqi sana'ti bilan mashhur bo'lib kelgan. Hozirgi davr, ajdodlarimiz yaratgan mahnaviyat durdonalaridan xalqimizni har qachongidan ham ko'proq bahramand etish uchun imkoniyatlar ochib berilgan davrdir. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov aytganidek: "Tarixga murojaat qilar ekanmiz, bu xalq xotirasi ekanligini nazarda tutishimiz kerak. Xotirasiz barkamol kishi bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning ham kelajagi bo'lmaydi". Mustaqillikka erishgandan buyon ijtimoiy, siyosiy va madaniy-mahrifiy jabhalarda katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. O'zligimizni anglashga, qadim tariximizni o'rganishga, ajdodlarimiz qoldirgan madaniy merosni asrab-avaylashga katta ehtibor berilmoqda. Xalqimizning musiqa boyliklari juda ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Ohangdor ajoyib kuylarimiz, o'zbek musiqasining va folklor namunalari kishiga quvonch, xursandchilik baishlaydi, oir damlarni yengil qiladi. U insonni oliyjanob fazilatlari, his va tuyularini ifodalab beruvchi kuchga egadir. Prizidentimiz,..." bugungi kunda musika sana'ti navkiron avlodimizning yuksak mahnaviyat ruxida kamol topishida boshka sana't turlariga karaganda ko'proq va kuchliroq tahsir kursatmokda" deb tahkidladilar uzlarining "Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch" nomli kitoblarida. Insonning ruxiy kamolati xakida gapirar ekanmiz, albatta bu maksadga musika sana'tisiz erishib bulmaydi.....Agar insonning kuloi yengil- yelpi, oxanglarga o'rganib qolsa, bora bora uning badiiy didi, musika madaniyati pasayib ketishi, uning mahnaviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi ham hech gap emas. Oxir-okibat bunday odam "SHashmakom" singari milliy merosimizning noyob durdonalarini kabi dunyo tan olgan buyuk kompozitorlarning asarlari va saxnaviy asarlarni ham qabul qilishi qiyin buladi. (6) Bunday holatlarni oldini olish uchun sana'tkorlar orsida solom ijodiy muhit tashkil kilish, usib kelayotgan yosh avlodning mahnaviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyating mumtoz asarlari bilan baxramand bo'lishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, musiqiy tahlimni yanada rivojlantirish masalalari o'rta muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bois respublikamizda o'zbek mumtoz musiqiy asarlarni tarib qilishda badiiy havaskorlik jamoalari alohida ahamiyat kasb etadi, zero, aksariyat ijrochilar o'zlarining dastlabki poyqadamlarnin ana shu jamoalardan boshlaydilar.

Puxta nazariy bilimlarga va amaliy ish ko'nikmasiga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzar vazifasiga aylangan.

O'tmish madaniyatisiz yangi madaniyatni tasavvur qilish amri mahol. O'zlikni anglash esa, tarixni bilishdan boshlanadi. Zotan "tarix-xalq

mahnaviyatining asosidir”. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib o’zlikni anglash mumkin emas. “Xalqning mahnaviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish O’zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Mahnaviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimiz qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o’z mustaqilligini tushunib yetishi va ozodlikni sevish tuyusi bilan birgalikda yetilgan. Mustaqillik sharofati bilan vatanimizning ko’p yillik tarixini, jumladan, madaniyatimiz tarixini sinchiklab o’rganish, tadqiqotlar olib borish kabi katta imkoniyatlar vujudga keldi. SHuningdek, o’zbek mumtoz musiqasi tarixini mufassal yoritib berish uchun nodir manbaalar va qo’lyozmalardan bimalol foydalanish mumkin bo’lgan sharoitlar yaratildi. Mamlakatimizda solom va barkamol avlodni tarbiyalash yoshlarning o’z ijodiy va intellektual salohiyatini ruyobga chikarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to’liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish bo’yicha keng ko’lamli aniq yo’naltirilgan chora –tadbirlarni amalga oshirish maqsadida O’zbekiston Respublikasida 2010 yil “Barkamol avlod yili” deb ehlon qilindi. SHu munosabat bilan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi tasdiqlanib unda quyidagi asosiy vazifalar belgilandi. Bolalar va yoshlarning xuquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni barkamol va solom qilib rivojlantirishning xuquqiy bazasini takomillashtirish, amaldagi qonunchilik hamda mehyoriy xujjatlarga zamon talablariga mos o’zgartirish va qo’shimchalar kiritish.

6-sinf o’quvchilarini mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish va unga qiziqish uyg’otish orqali milliy qadriyatlarini shakllantirish orqali millat ururi, oriyati va iftixorini, milliy ongni shakllantirishda, o’zbek xalq qo’shiqlari hurmat bilan qarash kabi hislatlarni tarbiyalash yetakchi bo’lib hisoblaniladi.

## Asosiy qism

### **1.Mumtoz musiqiy asarlar bilan tanishtirish orqali o'zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg'otishning nazariy asoslari.**

Muqaddas zaminimiz O'zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli madaniyatimiz va sana'timiz ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan yosh sana'tkorlarimiz safi yil sayin oshib bormoqda. Ularni milliy cholularda, o'qitish, tarbiyalash ishiga jiddiy ehtibor berish bugungi kun davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Buning uchun barcha shart sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratilmoqda. Milliy cholularimizda ijro qilish yoshlarning sevimli mashulotlaridan biri bo'lib, cholularni o'zlashtirish tizimi sana't va madaniyat tahlim muassasalarida yo'lga qo'yilgan. Cholular qadimiy va qo'xna bo'lib, asrlar, ming yilliklar davomida uni sevib ijro etilib kelinmoqda. O'zbekiston musiqa sana'tining tarix sahifalarida musiqiy ijrochilik sana'tining rivojlanishiga o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shgan ajoyib, mohir sozandalarni ko'rishimiz mumkin. Ular o'zlarining sana'tlari bilan zamondoshlar olqishiga sazovor bo'lib, yosh avlodda milliy cholularga mehr uyotib, tarixda o'chmas iz qoldirganlar. O'zbek milliy choluchilik sana'tida butun iqtidorini, ijodiy ayratini sarflagan ustoz sozandalar bo'lgan. Ular orasida Abduqodir Ismoilov, Yunus Rajabiy, Tolibjon Sodiqov, Ayubjon Qodirov, Maxmudjon Muhamedov, Fozil Xarratov, Turun Alimatov, Muhammadjon Mirazev, anijon Toshmatov, Obid Holmuhamedov, Ahmad Odilov, Mirza Toirov, SHuxrat Yo'ldoshev, Rustam Nehmatov, Halimjo Jo'raev, Abduhoshim Ismoilov, Abdulahat Abdurashidov va boshqa ko'plab fidoyi insonlarning nomlarini ko'rsatishimiz mumkin. Ustozlarning cholu navolari ko'p sonli tinglovchi muxlislar ehtiborini qozonib, el – yurt xurmatiga sazovor bo'lganlar. XX asrning boshlarida o'zbek musiqa madaniyatining oldingi saflarida bo'lgan, navqiron anhanalariga xos musiqiy ijrochilik sana'ti zamona talabiga naqadar aniq javob bera olganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Qo'shiqlar halq moddiy va mahnaviy hayotining hamma tomonlari bilan bolangan bo'lib, ular muayyan tarihiy taraqqiyotida insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga hos obrazlarda badiiy aks ettiradi. Halqimizning eng yaxshi ko'rgan oyaviy-badiiy jihatdan yuksak to'y qo'shiqlari yor-yor, terma, lapar, o'lanlarida halqning turmushi, tirikchiligi, ko'nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod xurramligi kelajakka ishonchi ifodalangan, zo'ravonlar, erkinsizlik, adolatsizlikka qarshi ko'pchilikning qudratli ovozi eshtilib turadi. Qo'shiqlarning muammasi voqealikning lirik o'zasini badiiy o'zlashtirib, yahni yuz bergan xodisa, faktlarga munosabat, his-tuyu va kayfiyat orqali ifodalanadi. Qo'shiq-sana'tning oliy turi bo'lgan shehriyatning qadimiy va keng tarqalgan turidir. Qo'shiq so'zini 11 asrning tilshunos olimi, filolog Maxmud Qashoriyning mashhur asari "Devonu luatit turk" asarida o'qish mumkin. O'zbek halq qo'shiqlarining uzoq tarixini o'rganishda "Devonu luatit turk"ning uchala tomida tarqoq holdagi qo'shiqlar to'plab ko'rilsa bundan ming yil ilgari ham qo'shiqlarning rang-barangligini mehnat, mavsum marosim va ishq muhabbat temasidagi qo'shiqlarning keng tarqalganligi, ularning til ibrolari, vazn, qofiyalaridan qo'shiq ekanligini ko'ramiz. Maxmud Qashariy tomonidan chegil, qipchoq kabi qabilalar orasida to'plangan qo'shiqlar yordamida o'zbek yozma adabiyotining yuzaga kelishi va taraqqiyot etishi uchun lozim bo'lgan adabiy zaminning bir qismini qo'shiqlar tashkil etgan deyish mumkin. Devondagi to'rtliklarning bir nechasi halq qo'shiqlari asosida yaratilgan yozma adabiyot namunalari bo'lishi ham mumkin. Qo'shiq so'zini yana bar mashhur qomusiy olim Yusuf Xos Hojibning "Qutadu bilig" asarida ham uchratish mumkin. Qo'shiq so'zi bir zamonlar poeziya shehriyat mahnosini anglatgan va xalq shehriyati shu termin bilan atalgan, umumlashma termin sifatida ishlatilgan.

Qo'shiqning bunday keng mahnosi xalq o'rtasida hozirgacha saqlanib qolgan. Masalan, xalq shoir, dostonchilari doston aytganlarini bildirmoqchi bo'lsalar "qo'shiq aytdim" ham deydilar. Ammo qo'shiq terminini ko'p ishlatadilar. Demak, qo'shiq

o'zbeklarda keng mahnodada bo'lib, shehriyatni ifoda etgan. Sana'tning xaqiqiy mazmuni inson va uning hayotini muayyan davr ijtimoiy axloq normalari bilan belgilanadi, go'zallik esa his-tuyu orqali kishiga zavq beradi. O'zbek halq ozaki badiiy ijodida asosiy janrlardan hisoblangan qo'shiqlar xalq turmushini, ahloq normalarini o'ziga hos sana't orqali aks ettiradi. Odamlarning ichki dunyosi, o'y tushunchasi, umid orzu va kelajakka bo'lgan ishonchi ham o'ziga xoslik bilan ifodalanadi. O'zbek xalq qo'shiqlarining oyaviy tematik va janr xususiyatlarini nazarda tutib, ular ikki turkumga bo'linganligini ko'ramiz. Birinchi, faqat mahlum hayotiy janrlarda, masalan: mehnatda ("Mayda", "Yozi" kabilar); bola tebratishda ("Alla"); to'y marosimlarida ("Yor-yor" kabilar) ijro etiladigan turli mavzudagi qo'shiq, terma, lapar, alla va ashulalardir. Bular ichida ashula janri kuy rivoji va tuzulishidagi xususiyatlariga nisbatan hajmi, cho'ziq ohangdrligi bilan ajralib turadi. Qolganlari esa kichik kuylar tarzida tuzilgan bo'lib, ular o'zaro bir birlaridan ayrim xususiyatlari bilangina ajralib turadilar. Masalan, qo'shiq raqssiz hamda asosan yakkaxon ijrosida aytilsa, lapar albatta raqs bilan, ko'pincha ikki kishi tomonidan dialog formasida ijro etiladi. Bu esa o'z navbatida lapar kuylarining raqsiyligi hamda naqoratsiz va kalta bo'lganligi bilan ajraladi. Lapardan farqli o'laroq yalla esa ko'pincha naqoratli bo'lib, ko'pchilik tomonidan qarsak chalinib, jo'r bo'lib aytilsa, bandlar yakkaxon yallachi tomonidan o'yin bilan aytiladi. "Bu janrlar, yahni, terma, qo'shiq, yalla, lapar va ashulalar ayrim marosimlar bilan bolangan holda keng tarannum etishlari natijasida ularning har biri mavzuning ko'pqirraliligi bilan ham marosim qo'shiqlaridan ajralib turadi. Lekin o'z tuzilishi va aytilish uslublarida esa ular marosim va mehnat qo'shiqlari, umuman mahlum jarayon bilan boliq holda aytiladigan qo'shiqlardan deyarli farq qilmaydi", -deb yozadi musiqashunos olim F. Karomatov. Qadimgi davrlarda qo'shiqchilik sana'ti xalq sana'ti shaklida paydo bo'lib, keyinchalik sinfiy jamiyatga o'tish va ijtimoiy tabaqalanish natijasida uning kasbiy (professional) shakli ajralib chiqq boshlagan. Olimlarning tahkidlashlaricha O'zbekistonda professional qo'shiqchilik sana'tining ilk asoslari bundan taxminan 2500 yil avval shakllana boshlagan. Bu esa rivojlangan turli janrlarning maydonga kelishiga sabab bo'ldi.

“Nota yozuvlari bizda XSH asrdanoq ixtiro etilganiga qaramay, musiqa asarlarini ijrochilar, ustozdan anhanaga ko’ra ozaki o’rganishni davom ettirganlar”,- deb yozadi I.Rajabov. Xalq musiqasidagi “Bayot”, “Dugox”. “Segoh” kabi asarlar ustozdan shogirdga, ijrochidan ijrochiga, avloddan avlodga o’tgan sari sayqallana borgan va shu yo’sinda bizgacha yetib kelgan. SHuning uchun ham merosimizning bu turkumiga nisbatan ozaki traditsiyali professional musiqa iborasi ishlatiladi. Bunday professional musiqa turkumiga katta ashulalar, qo’shiqlar, yirik hajmdagi rivojlangan cholu kuylari hamda merosimizning klassik namunasi bo’lgan maqomlar kiradi. “SHashmaqom”- Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh, Iroq maqomlari turkumidan iborat bo’lib, har bir maqom ikki bo’limdan - Mushkilot deb nomlanuvchi cholu va nasr nomi bilan yuritiladigan ashula bo’limlaridan iboratdir, o’z navbatida har bir bo’lim bir necha qismdan: cholu bo’limi - Tasnif, Tarjeh, Gardun, Muxammasdan iborat.

O’zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Abduanievich Karimov 1997 yil «SHarq taronalari» festivalining ochilishidagi so’zlagan nutqida shunday degan edi:

“SHarq musiqasi-sharq falsafasi sharq dunyosining uzviy qismidir. SHarq musiqasining jahon madaniyat miqyosida to’tgan o’rni benihoya buyuk. Bu musiqa ming-ming yillardan beri odamlar didini poklab, ularni ruxan yuksaltirib kelmoqda. O’zining nozik shabadasi bilan dunyo madaniyatiga ozuqa berib, umumbashariy qadriyatlarga munosib xissa qo’shmoqda.”

Mahlumki anhana tusiga aylangan ushbu festival yilidan- yilga o’z nufuzini kengaytirib bormokda. Aynan o’zbek milliy ustozona ijrochilik, xonanadalik anhanalari naqadar kuchli va barkamol maktabiga ega eaknligi uning ijro etilgan musikiy mumtoz namunalarida o’z aksini ifoda etib kelmoqda. Barcha xalqlar kabi milliy musiqamizning jahondagi tutgan o’rni aynan madaniyatimizning qudratini tarannum etib kelmoqda.

Festival tashkil etilgandan buyon qator sana'tkorlar o'z sana't mahoratlarini jahon ahamiyatiga molik bu kabi tadbirlarda namoyish etib munosib o'rin egalariga aylanmoqdalar. Ular ijro etgan milliy anhanalar musiqiy namunasi millatimizning madaniyat qudrati va shu bilan birga go'zal O'zbekiston xalqining azaliy qadriyatini ifoda etmoqda. Maqom ijrochiligi yo'nalishida ijod etayotgan professional ijodkorlar uchun festivalning uyushtirilishi nafaqat sana't ahli, balki oddiy xalqni ham mahnaviy va madaniy boyligi, ehtiyojlarini ham qondirib kelmokda. 2005 yil maqom ijrochilik anhanalarini mukammal o'zlashtirgan yosh xonanda Nodira Pirmatova festivalda bevosita qatnashib mamlakatlar sana'tkorlari ahlining hurmatiga sazovor bo'ldi va oliblikni qo'lga kiritdi. 2009 yilda o'tkazilgan navbatdagi festivalda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Matluba Dadaboevaning (hozirda xalq artisti) nomi bilan bolliq. Mustakil O'zbekiston vakilasi sifatida qatnashgan yoqimli, o'ziga xos ovoz sohibasi, xonanda ijroda bor imkoniyatlarini ishga solib, unga berilgan ishonchni oqladi va 1-o'rin sohibasi bo'ldi. Hozirgi kunda bu kabi milliy ijrochilik anhanalariga sodiq sana'tkorlar safi kengayib, tarix zarvaraqlaridan o'rin olayotganliklari madaniyat sohasining yuksalayotganligidan dalolat deb qarash mumkin. Ularning ayni davrda milliy musiqaning avloddan avlodga meros bo'lib qolishida o'z hissalarini qo'shib kelayotgan ustozona faoliyatlari ham taxsinga loyiq. Sana't yo'nalishlaridan yevropa mumtoz darajasiga molik «opera» ijrochilik sana'tining O'zbekistonda taraqqiy etishi ham qaysidir mahnoda jahon madaniyatining yuqori bosqichlariga loyiq xalq ekanligimizni ko'rsatadi. O'z tarixiy jarayonidan boxabar har bir davlat va millat ahli madaniyatida, albatta dunyo xalqlar sana'ti va ijodiy maxsuli madaniyatini o'rganishi, keng mahnoda mukammal komillikka intilishning bir ko'rinishi hisoblanadi. O'z tarixini, qadriyatlarini bilmay, tushunmay turib, o'z galar tarixi va merosini o'rganish mumkin emas. Vaholanki, musiqa dunyosi juda keng bo'lib, uning domiga kirgan har qanday ijod ustasi ularni birday bilishi va kerakligicha o'zlashtirishi zarur. Uning kasbiylik darajasi va mutaxassislik mezoni ham aynan shunday o'lchanadi.

Evropa (klassik) mumtoz musiqasi darajasidagi dunyoviy ahamiyatga ega bo'lgan, yuksak madaniyat namunasi sifatida **“opera”** sana'ti qadrlanadi. **“Opera”** sana'ti sintez janrlar turkumini tashkil etib tarkibida kator janrlar mavjudligi bilan murakkablikni namoyon etadi. Bu sana't turi ham bugungi kun qo'shiqchilik sana'tining bir bo'lagi sifatida rivojlanib kelmoqda Madaniyat ravnaqi ko'p jihatdan ushbu sana't turi bilan ham boliq.Vatanimiz dovrini jahonga tarannum etayotgan ommabop ijrochilik anhanasi yildan-yilga o'z ijro va tinglovchilari safini kengayishini tahminlamokda. Musiqa sana'ti har bir davrda ham inson hayotida muhim mahnaviy, ruxiy ozuqa bo'lib kelgan. Aynan, ijrochilik va qo'shiqchilik sana'ti mavjud sana'tlar orasida insonning mahnaviy barkamolligi, shakllanishi va uning ijtimoiy hayotida o'zining tahsir kuchiga ega bo'lgan.SHu o'rinda ushbu yo'nalishnig janr sifatida shakllanishi va taraqqiy etishida munosib hissalarini qo'shgan sana'tkorlarni aytib o'tish joiz. O'zbek musiqasi tarixida hurmat va shuhrat qozongan opera ijrochiligi va milliy mumtoz musiqiy asarlarni birday ijro eta oladigan, ko'p qirrali xonandalar Halima Nosirova, Nazira Ahmedova, Saodat Qobulovalar opera qo'shiqchilik sana'tining asoschilaridan. Ular ijrochi xonanda sifatida ham yevropa, ham milliy ohanglar jilosida tarannum etib, ikki yo'nalishni bir vaqtda maromida ijro eta olgan, betakror, nozik ovoz imkoniyatlariga ega bo'lgan sana'tkorlardir. Aynan ularning ijod namunalari O'zbekistonda milliy opera maktabi poydevorini yaratishda muhim hisoblanadi. Ular qo'shiqchilik, akademik xonandalik, ashulachilik yo'nalishini mukammal o'zlashtirgan, keng imkoniyat va kobiliyat egasi ekanliklari bilan ajralib turadilar. Ustozlar yaratgan maktab hozirgi kunga kadar o'z qadri va salohiyatini, ijro anhanalarini yo'qotmay kelmoqda, Ustozlar tayyorlagan shogirdlar, aynan shu kungi «milliy opera» sana'ti anhanalarini davomchilari sifatida faoliyat yuritib kelmokdalar.

Prezidentimiznig madaniyat sohasidagi turli janrlar ijrosida professionallik darajasini kengaytirish va rivojlantirish maksadida yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar bugungi kunda o'z natijasini, bermokda. Birgina O'zbekiston va Qoraqalpoiston xalq artisti Muyassar Razzoqova ijodini misol sifatida ko'rish mumkin. Muyassar Razzoqova opera sana'ti yo'nalishidagi ijodkor sifatida

o'zining betakror, jozibali, o'ziga xos ovoz tembriga egaligi bilan, jahon miqyosida xalqaro tanlov va festivallarda oliblikni qo'lga kiritib kelmoqda. Ustozlar o'gitini, milliy opera ijrochilik maktabini davomchisi sifatida shogirdlarga milliy opera ijrochiligidan saboq bermokda. O'zbekistondan davlatning o'z opera maktabi mavjudligi muhimdir. Ijodkorning madaniyatimiz rivojlanishida o'z salohiyatini oshirish yo'lida qilayotgan xarakatlari, qator tadbirlarnig uyushtirilishi bilan boliq. O'tgan 2009 yil noyabr oyida opera ijrochiligini rivojlantirish maqsadida Nazira Ahmedova nomidagi xonandalar tanlovi o'tkazildi. Tanlovning muhimlik jihatlaridan yana biri shundaki, oldingilaridan farqli o'laroq noanhanaviy tarzda xalqaro miqyosida o'tkazilishidir. Tanlovga qatnashish maqsadida qo'shni Qozoiston, Qiriziston, Tojikiston va Rossiyaning Odessa shahridan, jami 30dan ortiq ishtirokchilar tashrif buyurdilar. Ular ijrosida xorijiy kompozitorlar asarlari bilan bir qatorda o'zbek kompozitorlik ijodiyotining musikiy namunalari ham ijro etildi. Tanlov o'tkazilish tayyorgarligi yuqori saviyada bo'lib, qatnashuvchilarni xayhat ahzolari munosib baholab bordilar. SHuni aytish joyizki, tanlovda xonandalar nafaqat o'z imkoniyatlarini namoyish etdilar, balki O'zbekistonda opera ijrochiligiga bo'lgan munosabat, ijrochilik maktabining qanday professional darajaga ega ekanligini namoyish etdilar. Opera ijrochilik maktabiga bo'lgan munosabat, qiziqish har bir davr uchun o'z muhimlik va ommaboplik xususiyatini saklab kelgan. O'zbekistonda opera sana'ti ijrochilik maktabining rivojlanishi nafaqat opera maktabining mavjudligi balki, unadgi amaliyot maktabinnig borligi bilan belgilanadi. O'zbekiston opera ijrochiligini yanada ravnaq topishi uchun zamin yaratib kelayotgan Alisher Navoyi nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatrining faoliyati ijodkorlar, tinglovchilarnig mahnaviy ehtiyojiga javob bo'lib kelmoqda.

Yosh opera ijrochilari aynan ushbu maskanda o'z ustozlaridan o'rgangan bilimlarini, imkoniyatlarini namoyish etishlari va malakali mutaxassis bo'lib kelajak avlod uchun xizmat kilishlariga sana't o'choi bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumukinki, barcha mavjud murakkab sana't yo'nalishlari kabi opera ijrochilik maktabi ham o'zining rivojlanishi va taraqqiy etish darajasi bilan davlat, xalqimiz ishonchini oqlay oladi, bunga yaratilgan imkoniyatlar vosita bo'lib xizmat qiladi. Har bir davrning o'z ommaboplik darajasi bilan belgilanadigan yo'nalishi, janri ham mavjud bo'ladi. SHu nuqtai nazardan bugungi kun estrada janri ham mahlum mahnoda jadal ommalashib borayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Aytish mumukinki, sana't ummonidagi eng ommabop yo'nalishlaridan biri sifatida «estrada» janrini ko'rish mumkin. «Estrada» o'zi nima? Qanday janr, qanday tarzda o'zbek musiqa olamiga kirib keldi? kabi savollarga biroz to'xtalamiz. Estarada asli xorijiy so'z bo'lib, har tomonlama ochik sahna va shu sahnada ijro etiladigan voqehlik mahnolarini anglatadi. Yevropa estradasi, sharq estradasi, arb estradasi va nihoyat milliy estrada atamalari mavjud. Mahlumki, musiqa imkoniyatlarining sarxadi cheksiz, shunga ko'ra barcha davrning ommaboplashgan, o'z musikiy oqim rivojlanishi kuzatiladi, uning ommabopligi esa ijtimoiy hayot va davr taqozosi bilan uzviy bolliqdir. Zero, uning rivojlanish erkinligi shu qadar keng ko'lamga egaki, har bir davr o'z ijodkori nomi bilan ham mashhurlikka ega bo'lgan. Janr sifatida ommaboplik darajasi ehtiyoj, talab darajasi bilan xarakterlanadi Estrada janrini yoshidan qathiy nazar hamma birday tinglay oladi deb bo'lmaydi. CHunki xar bir davrda ham mavjud janrning o'z ixlosmandi, tinglovchisi va albatta qoralovchi-tankidchilari bo'lgan. Ammo bugungi kun estaradasiga aynan milliylikning uyunligi mahlum jihatdan tinglovchilar ko'lamini mumkin qadar kengayishiga olib kelmokda. Estradani sana'tnnig bir yo'nalishi, doimiy ravishda rivojlanib boruvchi janr sifatida qarash to'riroq bo'ladi. O'zbek estrada sana'ti o'tgan asrninig 60-70 yillarida keng shakllana boshlagan va o'z asoschilariga ega. Milliy estrada rivojlanishi va shakllanishida Botir Zokirov, Yunus Turaev, Bahrom Mavlonov kabi qator qo'shiqchilar nomlarini ehtirolf etish joiz. Bu davrda milliy musiqiy oxanglarda bastakorlar ijodi bilan bolik va ularning yaratgan o'z ijro uslublari mavjud bo'lgan. Ular tomonidan kuylangan barcha xonishlar o'z paytida mashxurlikka ega bo'lgaliklarni ko'zatishi mumkin. Qo'shiqchilik sana'tida

estarda janrining rivojlanishi bastkor ijodkordlar uchun ham katta imkoniyat bosqichi bo'lib, Botir Zokirov yaratgan asarlari ham mashxurligi bilan ajralib turadi. Botir Zokirov yoki ovozi soxibi o'z ijro uslubi va o'zida milliy musikaning obrazlik ifodasini mujassam eta olgan betakror xususiyat egasidir. Botir Zokirov ijro etgan repertuarlar doirasida o'tkazilgan yoshlar o'rtasidagi tanlovlar ham uning boki ijodkorligi hozirgi kunga qadar uning ijro etgan asarlari estradamizning ilk poydevori ekanligidan dalolat beradi. Ijodkor qaysi janrda ijod etmasin doim uning professionallik ijro mahorati, sana't darajasi uning mavkehyi va asarning bokiyligini taminlay oladi. Hozirgi kunda milliy ohanglar bilan suvorian milliy ommabop musiqaning rivojlanishi qaysidir mahnodan milliy ohanglarni tarshibotchisiga aylinib ulgurgan. Bu yo'nalishda juda ko'p, sozanda, xanadalar shoir va bastakorlar ijod etib kelmokdalar. Xar bir davrning ommabop janri bo'lgani kabi bugungi kunda o'zbek estrada sana'ti yoshlarning mahnaviy ozukasiga aylangan. SHuni ehtirolf etish zarurki, milliy kadimiy anhanaviy merosimiz namunalari hozirgi kun musikiy til bilan aytganda saykallashtirilgan, (aranjirovka) ko'rinishida yoshlar kalbini tulaqonli zabt etmoqda. Bu yo'nalishda qo'shiqchi xonadalar bilan bir pallada bastakorlar, shoirlar ijodini ham aytish lozim. Azaldan mahlumki milliy musika xech kachon o'z oxorini boqiylik darajasini susaytirmagan. Aksincha, davr o'tishi bilan uning moxiyati, qadri oshib borishi mahlum jarayon. Bu borada «oltin zanglamas» naklini keltirish o'rinli. Estrada janrida yaratilgan asarning milliyliyi uning lad tizimini sharqona intonatsion xarakat ohangi, interval tarkibi bilan ham xarakterlanadi. Usullarning ohang va shehriyat bilan uyunlashuvi yaratilayotgan qo'shiqni xar tomonlama milliy ruxiyatini belgilab xalqchilligini tahminlab beradi. Davrning xalqi sevgan shoiri va sana'tkori mavjud bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf shehrlari bilan aytiladigan qo'shiqlarni sevib tinglamaydigan o'zbek topilmasa kerak. Bu qo'shiq namunalari juda kiska fursatda radio, televideniening oltin fondidan ham joy olishga ulgurgan. Ular 7 yoshdan 70 yoshgacha birdek manzur bo'lib kelayotganini ko'zatomokdamiz. Buning siri Muhammad Yusuf shehriyatining yurakka yaqinligi, xalqchilligi, soddaligi ham

samimiylikda. SHuning uchun ham uning eng dolzarb mavzularda yozilgan shehlari qo'shiqqa aylanib ketaveradi. Muhammad Yusufning shehlari ilk bor qo'shiq qilingan va ijro qilingan Oxunjon Madaliev (Bobodehqonim), Mahmudjon Azimov (Samarqand), iyos Boytoev (Mexr qolur) ijrolari o'z muxlislariga ega. SHoirning shehlari bilan Farrux Zokirov, ulomjon Yoqubov, Muhridin Xoliqov, Oxunjon Madaliev, Sevara Nazarxon, Anvar aniev, Toshpo'lat Matkarimov, va boshqa taniqli sana'tkorlar tomonidan qo'shiqlar yaratilgan va elga manzur bo'lgan. «O'zingdan qo'ymasin, xalqim», «Hech kimga bermaymiz seni O'zbekiston», «Xalq bo'l elim», kabi vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlari hozirgi kunda yoshlarning madhiyalariga aylangan. Qo'shiqchilik sanahtining taraqqiyotida bastakorlardan Anor Nazarov, Alisher Rasulov, Ulubek Mamarasulov, SHamsiddin Xolmurodov va boshqa bastakorlarnig xizmatlari kattadir. Ularnig repertuarlarida vatanparvarlik, mardlik mehr-oqibat mavzuidagi ijodlari tinglovchilarni faqat ezgulikkka intilish va doimiy ravishda umid va ishonch bilan hayot kechirishga undovchi shukuh xarakterini tarannum etadi. Estradani tarib etish, aynan «milliy estrada» sana'tini rivojlantirish va shakllanishiga berilayotgan katta imkoniyatlar natijasida bugungi kun yoshlari orasida professional xonanda sifatida, mavjud barcha milliy janrlarni birdek ijro etish qobiliyatlar va imkoniyatlarga ega ijrochilar soni ortib borayotganligi quvonarli hol. Ularning har biri sana'tda o'z ijro uslublariga ega bo'lishga erishmoqdalar. Imkoniyatlarning yaratilishi yangi qobiliyatli ijorochi qo'shiqchilar, ijrochi sozandalarning kashf etilishini tahminlamoqda. Ularning ijodlari turli mavzu va mazmundagi qo'shiqlar, ayni paytda ahlok-odob va tarbiyaviy jihatlari ohanglarda tarannum etilmokda. Masalan Ozodbek Nazarbekovning qo'shiqlari boshqalardan **farqli ularoq** aynan Faroni uslubiga xos bo'lgan ijodkor nafaqat vodiy balki ayni paytda barcha voxalarga xos uslublar qamrovida ijod etmoqada. Uning yurakka tez yetib boruvchi tahsirchan ohanglar so'z uyunligida yetti yoshdan yetmish yoshgacha musiqa shina vandalarini ehtiboriga tushgan. Insoniyatning orzu-umidi, ularning ijtimoiy hayotdagi barcha kechinmalarni kuylovchi xonanda shirali tahsirchan ohanglar ila tinglovchi

kalbidan joy olgan. Xonanda inson qalbiga kirib uning dil so'zlarini, nozik torlarini cherta bilishi va o'z dardini xalq dardi ila xis kilishi, nolalarida uni ifoda etib berishi bilan uning sanhtkorlik, qo'shiqchilik darajasi belgilanadi. Bu borada o'z vazifasini to'liq uddalay olayotgan xonandalardan biri deb ehtitof etish mumkin. Xonanda tomonidan Ona, vatan, mehr-oqibat, pand-nasihati falsafiy, dunyoviy mavzumdagi qo'shiqlarning qariyb xar biri tinglovchini benihoya o'yga toldiradi. Bir muddat sergak tortishga kilgan ishlariga nazar solgan holda o'tayotgan umrinig sarxisobini ko'zlatishga, undaydi. Bu kabi sana'tkor, ijodkor axlini qo'plab misol keltirish mumkin. Vatanimizning mustakilligi mavzuyidagi qo'shiqlar har bir estrada xonandalarning repertuarida alohida o'rin egallaydi. Xalqning Vatanga bo'lgan yuksak to'ygularini ohanglarda ifodalab Vatandarparvarlik ruxini mustahkamlashga xizmat qila oladi. Vatanimiz tarixi, madaniyati kelajaki bugunki kuni kaysidir mahnoada o'zbek estrada ijodkorlari tomonidan tarannum etib, o'z ifodasini topmokda. SHuning uchun ham bu kabi xonandalarnig yaratgan qo'shiqlari barchaga birdek manzur bo'la oladi. Matnning tanlashda tugri va xur fikrlik musiqaning insonga bo'lgan tahsirini yanada kuchaytirish bilan mahnaviy boyligini oshirishda ko'mak hamdir. Mamlakatimiz madaniyati ravnaki yoshlar bilan bolanar ekan ustozlar anhanalarini saqlay bilishlari ham muximdir. Bu o'rinda davr ijodkorlarining ijod anhanalari shoir va bastakolari xonanda va sozandalar ijodiga qo'p mahnoada boliq. Mutaxassis sifatida ularning ko'rsatmalari, o'g'itlari dolzarbdir. Nadim Norxujaev, Habibullo Rahimov, Dilorom Omonullaeva, Rustam Abdullaev kabi bastakorlar qo'shiqchilik sanahtini rivoji yulida jonbozlik ko'rsatib kelayotgan uning rivojlanishi va anhanalarining ravnaqi uchun o'z hissalarini qo'shib kelayotgan ijodkorlardir. Ular yaratgan qo'shiqlar yosh ijrochilar tomonidan davlatimiz turli bayram tabdirlarida, kontsert dasturlarida ijro etilib xalqimizga manzur bo'lib kelmoqda. Qo'shiqchilik sana'tiga qo'shayotgan xissalari ayni kunda milliy estradaning rivoji va uning taraqqiyoti uchun katta ahamiyatgan ega. Ayniqsa mualliflar tomonidan yaratilayotgan Vatan mavzusidagi milliy ohanglar yuraklarni larzaga keltirib, Vatanimiz madhini butun dunyoga tarannum etmokda.

Yurboshimiz I.A.Karimov o'zining «**Yuksak mahnaviyat - yengilmas kuch**» asarida takidlaganidek:

«O'tgan asrning boshlarida ilk namunalari paydo bo'lgan o'zbek estradasi istiqlol yillarida sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bunday natijalarga erishishda milliy va umumbashariy musika sana'ti yutuqlarni, jahon estradasining eng yaxshi namunalarini o'rganish bo'yicha katta imkoniyatlar ochilgani, bu soha rivojiga ko'rsatilayotgan doimiy ehtibor, yosh istehdodlarning o'zini namoyon etishi uchun yaratilayotgan qulay shart-sharoitlar muhim rol uynamoqda

Biz estrada sana'tining bugungi va ertangi rivoji hakida so'z yuritar ekanmiz, avvalom bor «milliy estrada» degan iborani mahno-mazmuniga alohida ehtibor berishimiz, uni har kandy begona tahsiridan, ayniksa ommaviy madaniyat ruhidagi oqimlar tahsiridan himoya qilishimiz tabiiy, albatta... bunday holatlarni oldini olish uchun sana'tkorlar orasida solom ijodiy muhitni tashkil qilish, o'sib kelayotgan yosh avlodning mahnaviy olami va madaniy saviyasini yuksaltirish, yoshlarimizning milliy va jahon musiqa madaniyatining mumtoz asarlari bilan birga, ularning kayfiyati va intilishlariga mos keladigan zamonaviy estrada sana'ti namunalaridan keng baxramand bo'lish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, musiqiy tahlimni yanada rivojlantirish masalalari o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.»Albatta bugungi kun milliy estradasini rivojlanishi yoshlar ongiga tahsiri xaqida ehtiborli bo'lishliqni talab etadi. Kompleks mavzuning vazifasi qo'shiqchilikning tarrbiyaviy omilliri bilan bolik bo'lib, aynan yoshlar hayotidagi urnini belgilab berishdan iborat. Xozirgi tezkor rivojlanayotgan davrda musika soxasiga ham xorijiy ellarnig musika va qo'shiqlarining tahsirida yoshlarimiz fikri o'zgarib, o'z kadimiy milliy sanatiga ehtiborsiz bo'lmasliklarini oldini olish davr talabidir. O'zgalar sana'tini esa ko'r-ko'rona o'zlashtirib, ular musiqasiga o'zbek so'zlarini qo'yish, bachkana oxangli ijrolar, mazmun moxiyatga ega bo'lmagan, xech kandy voqelikni ifodalamaydigan bir yoqlama ijrolarni paydo bo'layotganligini ko'zatish mumkin. Xar kandy xalq o'z musiqa sana'tining

qadrini bilish va uni o'zlashtirishi millatining bir madaniy boyligidan baxramand bo'lish uning odob-axlokiy nukta nazardan ham soglom ekanligini belgilay oladi.

Tarbiyaviy ahamiyatga molik jihatlardan yiroq, tushunarsiz, mantiqqa ega bo'lmagan musiqaning ommaboplashmasligini oldini olish maqsadida televidenie, radio efirlarida mahlum seklanishlarni belgilanishi muhimlikni taqozo etadi. Ammo ularning boshka yahni internet tarmoqi orqali ko'chirishi ham keng mahnodan tarqalishiga omil bo'lib kelmoqda. Ayni paytda yoshlarga milliy ohanglarni zamonaviy tusda singdirilishi yoshlar uchun undanda muhimroq dolzarb mavzulardan biridir. Rivojlangan davlatlar musiqani tarbiyaviy fanlar qatorida birinchi bosqichga qo'yishadi. Masalan: Yaponiyada musika darsiga eng ko'p soat ajratilgan. Ular musika orqali hayot go'zalligini, uni sevishni, insonlarning bir-biriga bo'lgan mexri - muxabbatini oshirish va xar kanday noxush sharoitda ham inson ruxiyatini tabiyalashda muximligini shu bilan birga dunyoni idrok etishdagi asosiy omil deb qabo'l qilib buni o'z tajribalarida isbotlaganlar. Bu borada milliy musika merosni maktablarda va maktabgacha bo'lgan davrda o'rgatish yullari amalga oshirishi bugungi kun uchun ham davlatimiz tomonidan ehtiboroga olingan masalalardan biridir. Aynan mumtoz milliy ohanglar doirasida shakllangan farzandlar kelajakda mahanviyati yuksak va barkamol avlod bo'lib yetishishlarida katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Mahlumki, o'zbek musika merosi boy va serqirradir. Unda mujassamlashgan rang-barang xalq musiqiy namunalari asrlar osha avloddan-avlodga meros bo'lib, rivojlanib kelgan. Mahnaviyati boy davlat albatta ahloq – odob doirasida hamisha namuna bo'lib qoladi. Bu jihatdan o'zbek sana'ti har tomonlama insoniyatning shakllanishida ruxan tarbiyaviy omillirini o'zida mujassamlay oladigan mahnaviy ozuqa bo'la oladi. SHu o'rinda qo'shiqchilik sana'ti umumbashariy meros bo'lib, hamisha insoniyatni ezgulikka talpinib yashashga o'rgatadi, insonni estetik tarbiyalashda asosiy manba xisoblanadi. **Saidjon Kalonov (1914-1971)** – siz xalqimiz yaratgan rang – barang cholulardagi turli kuylarni maroq bilan tinglaysiz. Dutor, tanbur, chang, rubob, nay, doira – bu cholular har vaqt dilingizni hush, zavqingizni cho qiladi. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan mohir sozandalarimiz o'z sana'tlari

bilan xalqimizning qalbidan joy olganlar. CHolularning dilrabo ohanglari tinglovchini maftun qiladi. Agar sana'timizning tarix sahifalariga nazar tashlasak, o'z baxtini O'zbekiston diyorida topib, sana'ti bilan xalqqa xizmat qilgan ajoyib sozandalarimizning mehnatidan faxrlanamiz. Biz hikoya qilmoqchi bo'lgan mohir sozanda va bastakor Saidjon Kalonov ham peshqadam sana't axllaridan biridir. Saidjon chalgan “Yovvoyi chorgoh”, “Yovvoyi ushshoq”, “Patnis ushshoi” kabi kuylar xalqimiz qalbidan joy olgan. Nay nolasi, uning ohangi mungli xazina, shu bilan birga, dilbar, yurakning nozik torlarini chertib o'tuvchi ajib, jilvagar kuy. Nay kuyi tinglovchi hayollarini goh go'zal qirlar barida chorlaydi, goh o'tmishning achchiq – achchiq haqiqatidan hikoya qiladi. Bir gal mohir sozanda Saidjon Kalonov o'z kasbi haqida mehr- muhabbat bilan hikoya qilar ekan, o'tmishdagi sozandalarning ahvolini, shu jumladan, o'z ustozini, keksa o'zbek musiqachisi Abduqodir Ismoilovdan eshitganlarini so'zlab bergan edi: “O'tgan asrda Qo'qonda, Xudoyorxon saroyida Abduqodir naychining otasi Ismoil aka ko'mir tashuvchi bo'lib ishlar ekan. U xonda xizmatkor bo'lishni istamasa-da, xon saroyida yangrovchi kuy uning ko'ngil rishtalarini uzilmas qilib, bolab qo'ygan ekan. Saroyga keltirilgan xorazmlik bir sozanda har kuni erta saxarda nay chalib, xonni uyotar, kech tushganda ham nayi bilan uxlatar ekan. “Mana shularni ustozim Abduqodir aka takror – takror aytib berardi”, -deb eslagan edi Saidjon Kalonov. Saidjon Kalonovning O'zbek musiqa sana'tini rivojlantirishdagi xizmatlari munosib taqdirlanib, u “Hurmat belgisi” ordeni va “SHavkatli mehnati uchun” medali bilan mukofotlandi, bir necha “Faxriy yorliq” lar bilan taqdirlangan. Saidjon Kalonov “Respublikada xizmat ko'rsatgan artist” degan yuksak nomni olishga sazovor bo'ldi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Saidjon Kalonovning xalqimizni mamnun etuvchi kuy va qo'shiqlari qalbimizda doim yangraydi.

**To'xtasin Jalilov (1896-1966)** – bastakor, moxir sozanda, hech qanday kompozitorlik texnikasini egallamagan bo'lsa-da, ajoyib milliy kuylar yaratgan. To'xtasin Jalilov 1896 yilda Andijon shahrida tuilgan, u 10 yoshdan mehnat faoliyatini boshlagan. To'rt yil usta Abduraxmon etikduzning do'konida xizmatchi

bo'lib ishlaydi, keyinroq xo'jayin uni usta Xolmirzaga sotadi, ikki yil paxta zavodida ishchi bo'lib ishlaydi. O'spirinning birinchi tanishgan musiqachisi Oppoq oxun bo'lib, u xalq cholu asbobi – setorni yaxshi ko'rib chaladi. To'xtasin atoqli Qo'qon musiqachilaridan Eshon ijjakchi, Madamin dapchi, Yusufjon changchilar bilan uchrashish umidida Qo'qonga boradi. Yusufjon changchi yosh musiqachiga xalq qo'shiqlarini o'rgatadi. To'xtasin aka Yoqubjon changchi, azat oxun ijjakchi, Zokirjon doyrachi va Orifjon dutorchilardan tashkil topgan agitbrigada ansambli tarkibida ashulachi va ijjakchi sifatida qatnashadi. Ansambl repertuari keng tarqalgan xalq kuylari “Mirzadavlat”, “Qora sochim”, “Yorlarim” va shu kabilardan iborat edi. U 1919 yilda Andijon shahrida tashkil etilgan “Milliy cholu asboblari” ansamblida qatnashadi. Bu ansambl o'z repertuariga xalq kuylari va ashulalarini kiritgan edi. Bastakorlar ijodi bilan tanishish, shoirlar bilan uchrashish musiqachiga katta tahsir qiladi. SHundan so'ng o'sha davr voqeligi haqida ashulalar yaratdi. O'z asarlarining sodda va pishiq chiqishiga harakat qiladi. 1923 yilda To'xtasin Jalilov o'zbek musiqachilari guruhi bilan Moskvada qishloq xo'jalik ko'rgazmasida berilgan kontsertlarda qatnashadi. Moskvadan qaytgandan so'ng boshqa mashxur kishilardan o'rnak olib, 24 kishilik milliy musiqa to'garagini tashkil etadi. Bu musiqa to'garagi ko'proq xalq cholu kuylarini ijro etar edi. To'xtasin Jalilov 1925-27 yillarda kontsert – etnografiya ansamblida musiqachi, 1929 yildan boshlab, Andijon musiqa drama teatrida “Bobon qizi”, Komil Yashinning “O'rtoqlar” pesalariga musiqa yozishdan boshlaydi. Bu phesalarning musiqasi notaga olingan emas edi, ular yoddan ijro etilardi. SHuning uchun ushbu musiqa haqida biror fikr aytish qiyin. To'xtasin Jalilovning aytishiga qaraganda, ular xalq musiqasi asosiga qurilgan edi. Bastakor ommaviy va yakka ashulalar ham yaratgan. Eng dastlabki ashulalaridan biri “Yor ekan” edi. T.Jalilovning yaratgan ashulalari ichida o'sha davr voqeligini ifoda etgan, qishloq mehnatkashlariga baishlangan “Oq oltin tovlanar” ashulasi, yengil, xushchaqchaq, erkin ohangda marsh maromida yaratilgan. To'xtasin Jalilovning 30-yillardagi yirik ishlaridan biri xotin – qizlarning ozodligiga baishlangan “Gulsara” musiqali drammasidir. To'xtasin Jalilov Gulsaraning obrazini ifoda etuvchi “Qanchalar qon

yilasam”, “Qonli yuzim” kabi ariyalarni yaratdi. Bular ham o‘zbek xalq kuylari asosida yaratilgan edi. Gulsara birinchi marta Andijon musiqali drama teatrida (1929) qo‘yildi. 1936 yilda bastakor Tolibjon Sodiqov To‘xtasin Jalilovning “Gulsara” uchun to‘plagan kuylarini yozib oldi. Ana shundan so‘ng “Gulsara” Moskvada bo‘lib o‘tgan o‘zbek sana’ti dekadasida (1937) ko‘rsatilgan edi. To‘xtasin Jalilov 1934-1936 yillarda o‘zbek davlat musiqali teatrining bosh dirijyori va musiqa jamoasining rahbari bo‘lib ishlaydi. U yosh kadrlarni tanlashga katta ehtibor beradi. Dirijyor sifatida teatrining boshqa xodimlari bilan birga viloyat teatrlariga borib, “O‘rtoqlar”, “Xalima”, “Gulsara”, “Farxod va SHirin” spektakllarida qatnashadi. To‘xtasin Jalilov 1937 yilda bo‘ladigan o‘zbek sana’ti dekadasiga tayyorlanish munosabati bilan endigina tashkil etilgan o‘zbek davlat filarmoniyasiga milliy musiqa va raqs ansamblining rahbari qilib tayinlanadi. Bu ansambl moskvaliklarni ajoyib o‘zbek raqslari va kuylari bilan tanishtiradi. “Endi sendek jonon”, “Ustozim”, “Ey, nozanin”, “Gul yuz uzra”, “Qari navo”, “O‘ynar” kabi o‘zbek xalq ashulalari va “Navo”, “Segoh”, “SHaxnozi gulyor” maqomlaridan parchalar ansambl ijrosida katta muvaffaqiyat qozonadi. To‘xtasin Jalilovga o‘zbek musiqa madaniyatining rivojlanishidagi katta xizmatlari uchun 1937 yilda “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berilgan. To‘xtasin Jalilov yaratgan o‘lmas navolar mumtoz musiqiy merosimizda o‘ziga xos munosib o‘rin egallab, el xurmatiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

**Imomjon Ikromov (1891-1980)** – atoqli sozanda va bastakor. 1891 yilda Toshkent shahrida tuilgan. Unda yoshligidan musiqaga kuchli mehr uyotgan. U birinchi musiqiy saboqni sozanda ijjakchi Solixon Xo‘jaevdan oladi. U ustozidan ko‘pgina xalq kuylarini o‘rganadi. 1918 yil Imomjon Ikromov Toshkentda tashkil etilgan Xalq konservatoriyasiga o‘qishga kiradi. SHorahim SHoumarov sinfida o‘qib, tanbur chalishni o‘rganadi. 1923 yilda Yunus Rajabiy, Risqi Rajabiylar bilan birga u Samarqandga ishga yuboriladi. U Samarqand musiqali drama teatrida o‘z ish faoliyatini boshlaydi va ustoz sana’tkaor Abdulaziz Abdurasulov bilan tanishadi. Undan “SHashmaqom” yo‘llarini o‘rganadi. 1926 yilda Samarqanddan Toshkentga qaytadi. 1927 yilda O‘zbekiston radiosi qoshidagi Milliy ansamblga

ishga kirib, to umrining oxirigacha shu ansamblida ishlaydi. Imomjon Ikromov sana't ustalari – Mulla To'ychi Toshmuhammedov, SHorahim SHoumarov, Xoji Abdulaziz Abdurasulovlardan milliy musiqamizning ijro yo'llarini puxta o'rganadi. U bastakorlik sohasida birinchi va yagona ustoz sifatida mashxur xofiz, xassos sozanda, buyuk bastakor Xoji Abdulaziz Abdurasulovni hurmat bilan qayta – qayta eslar edi.

**Komiljon Jabborov (1914-1975)** – **ustoz bastakor**, moxir sozanda 1914 yilda Andijon shahrida tuilgan. U yoshligidan musiqaga xavas quydi. Keyin namanganlik mashxur sana'tkor usta Ro'zmat Isaboevga shogird tushdi. Undan chang sozini o'rgana boshladi. ijyak chalishni andijonlik sozanda Sobirjon Siddiqovdan, dutor chalishni Muxiddin Qoridan o'rgandi. 16 yoshidan To'xtasin Jalilov rahbarligidagi "Milliy musiqa tugaragi"ga sozanda bo'lib ishlay boshlaydi.

1931-1942 yillarda Andijondagi Oxunboboev nomidagi musiqali drama teatrida sozanda bo'lib ishlaydi. Bastakorlik ijodi ham aynan shu yillardan boshlanadi. Komiljon Jabborov musiqa sana'timizning taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari uchun "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

**Faxriddin Sodiqov (1914-1977)** – XX asr o'zbek bastakorlik sana'tining namoyondalaridan biri, xassos soxzanda, ustoz bastakor Faxriddin Sodiqov 1914 yil 13 iyulda Toshkentda SHayxontaxur dahasi, Qoryodi mahakllasida dunyoga keladi. Uni yoshligidan musiqa tarbiyalaydi. Qalbida musiqaga kuchli xavas uyongan yosh Faxriddin taniqli sozanda No'mon qori Mo'minzoda rahbarlik qilgan maktab qoshidagi musiqa to'garagiga qatnashib, chang, dutor chalishni o'zlashtiradi. Keyinchalik u Toshkent musiqa texnikumiga o'qishga kirib, sana't ustalari SHoraxm SHoumarov va Abdusaid Vaxobovlardan saboq oladi. Faxriddin Sodiqov sozandalik sana'tida aloxida tahkidlamoq kerak. U chang, dutor cholularini maxorat bilan ijro etadi. Ayniqsa, chang sozining ijrosi tahsinga sazovor edi. CHang ijrochiligini maxoratli egallagan sana'tkor asarning badiiy mazmunini ifoda etishga va bunda tovushlarning tabiiy tarovat kasb etishga asosiy ehtiborini qaratadi.

Ansamblning sozandalari – Turun Alimatov (Tanbur va satoda), Dadaxo'ja Sottixo'jaev (doyrada), Orif Qosimov (dutorda), aybullo Sahnullaev (qo'shneyda), Ishaq Qodirov (nayda), Ilhom To'raev (ijjakda) Faxriddin Sodiqov bilan yonma – yon turib, juda katta mashaqqatli mehnat qilishadi. Ular qisqa muddat ichida maqomning nasr, mushkilot qismlarini puxta o'zlashtirib, radioning “oltin fond”iga yozdirishadi. Demak, Faxriddin Sodiqov bunyod etgan o'lmas navolar mumtoz musiqiy shoxsupadan o'ziga munosib o'rin egallab, el ardoiga sazovor bo'lmoqda. SHu boisdan Faxriddin Sodiqov ijodiy faoliyati kelgusida mufassal o'rganib, yoritish ishi ehtiborli hamda xayrli vazifalardan biridir.

## **2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar o'zbek musiqasining yirik namayondarari ijodini o'rganishi orqali milliy qadriyatlarni shakillantirishi amaliy asoslari.**

O'zbek xalq musiqa va milliy xonandalik sana'ti anhanalari o'zining qadimiy asoslarga egaligi hamda tarixiy ildizlari mamlakatimiz hududida yashagan eng qadimgi ajdodlarimizning musiqiy iqtidori bilan bolanishiga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadigan qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Qadimgi turkiy tosh bitiklarda o'zining shakliy tuzilishi va ohangdoshligiga ko'ra marosim qo'shiqlarini eslatuvchi matnlarning mavjudligi, XI asrning buyuk tilshunosi, turkiy qabilalar yurtini kezib chiqib, xalq qo'shiqlari, maqol va so'z boyligini to'plagan buyuk olim Mahmud Qoshariy o'zining “Devonu luotit turk” nomli asarida juda ko'plab mehnat qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlar va mavsum-marosim qo'shiqlarining matnlarini keltirganligi, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur kabi ulu shoirlarimizning asarlarida o'z davrining mohir sozandalari hamda shirador ovoz sohibi bo'lgan mashhur xonandalar to'risida qiziqarli mahlumotlar qayd qilinganligi ham anhanaviy musiqa va xonandalik sana'timiz asrlar davomida izchil taraqqiy etib kelganligidan dalolat beradi. Bu esa o'sha davrlardayoq xalq musiqasi va qo'shiqchiligi anhanalari izchil taraqqiy etganligini, ayniqsa, yakkaxon qo'shiq ijrochilarining repertuari nihoyatda boy va rang-barang bo'lganligini ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligi milliy madaniyatning mazmunini, yo'nalishlarini, ahloq va odob haqidagi tushunchalarini qayta tiklash, ularni xar tomonlama takomillashtirishni talab etmoqda. Mahlumki, vatanparvarlik tuyusi shaxsda

yoshlik yillaridan boshlanadi. Yoshlarda bu tuyuni shakllantirish, boyitish, shuningdek, Vatan ravnaqi, xalq manfaati yo'lida sidqidildan mehnat qilish ko'nikmalarini hosil qilish o'ta murakkab pedagogik jarayon. Vatanparvarlik tuyusini shakllantirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uzluksiz tahlim tizimi oldida turgan dolzarb ijtimoiy pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Mazko'r muammoning ijtimoiy yechimini tahminlash, birinchidan, shaxsning yetuk mahnaviy-ahloqiy sifatlarga ega bo'lishini tahminlashga zamin yaratsa, ikkinchidan, mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, uning kuch-qudratini oshirish, xalqaro maydondagi obro'-ehtiborini ko'tarish, moddiy va mahnaviy boyliklarini ko'paytirish uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarning mahnaviy-ahloqiy tarbiyasida buyuk allomalarimiz: Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Jaloliddin Davoniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlarning asarlaridan hamda musiqiy tarbiya ilmiga, ijrochilikka hissa qo'shgan vatandoshlarimiz Yu.Rajabiy, R.Rajabiy, F.Karomatov, T.Jalilov, M.Qoriyoqubov, X.Nosirova, Tamaraxonim, S.Qobulova, T.Alimatov, O.Alimahsumov, D.Zokirov, T.ofurbekov, O.Matyoqubov, va boshqa taniqli sana'tkor – xonanda, sozanda, olimlarning ijodiy faoliyatlaridan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Har bir taraqqiy etgan madaniyatli xalq tili, urf-odati, adabiyoti, sana'ti, anhanaviy moddiy va mahnaviy boyliklariga ega. O'zbek xalqi ham dunyodagi eng qadimiy madaniy xalqlardan biri sifatida ana shunday xazinaga boy. Bu bilan biz xaqli ravishda ururlansak, faxrlansak arziydi. Buning uchun o'sha qadimiy madaniyatni, urf-odatni bilishimiz, o'zlashtirishimiz va keyingi avlodga sof shaklda yetkazishimiz lozim. SHuni ham unutmazlik kerakki, ming-ming yillar davomida shakllangan urf-odat, madaniyat, marosimlar o'zga xalqlardan yashirincha paydo bo'lib rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon, jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan xalqlarning bevosita ishtiroki, hamrohligida taraqqiyo topgan. Xar bir xalq ana shu udumlar, urf-odat, madaniyat, o'tmishiga chuqur tomir otib ketgan o'q ildizlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rin tutadi. O'zbek xalqining paydo bo'lish tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy anhanalari, urf-

odatlari, madaniyati, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga ega. U xalqning orzu-umidlari, istaklari, turmush tarzi, ahloq normalarini mujassam etadi. SHuning uchun ham har bir xalq, millat, elat ularni ko'z qorachiiday avaylab-asrab, taraqqiy ettirmoi, kelgusi avlodlarga yetkazmoi muhim vazifa hisoblanadi. CHunki bu qadriyatlar zamirida avvalo tarbiya yotadi. Har bir urf-odat, madaniyat, marosim o'ziga xos bo'lgan tarbiya usullarini talqin etadi. Ammo, ajdodlarimizning mahnaviy jasoratini anglab, ululab, ularning ibratli anhanalariga sodiq qola olamizmi? Jaloliddin Manguberdi jasorati, Ibn Sino, Beruniyning yuksak aqlu- zakovati, sabotu-irodasi Mahmud Qoshariyning "Devoni luatit turk", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", "Alpomish" qahramonlik dostoni kabi nodir qo'lyozmalarda xalq o'yinlari va milliy sport turlari to'risida mahlumotlar berilgan, bugun ular ertakdek tuyuladi. Darhaqiqat, o'zbek xalqi azaldan tarbiyaning asosiy vositasi bo'lgan bolalar o'yinlariga ehtibor bilan qaragan. SHu bois, yurtimizda ko'plab alloma va qahramonlar voyaga yetgan. Bola boshidan, deb bejiz aytilmagan. Amir Temur bobomizning tarjimai holiga oid quyidagi manba ehtiborga loyiq. "Ko'chada men bolalar bilan o'ynardim. Bolalar bilan urush-urush o'ynab, o'zimni amir etib tayinlardim-da, o'yinni boshqarardim va bolalarning bir guruhini ikkinchi guruh bilan urishtirishni ma'q qilardim". Sohibqiron bobomiz buyuk sarkarda va davlat arbobi bo'lib tanildi, bolalaikda birga o'ynagan do'stlari uning ishongan lashkarboshilari va amirlari darajasiga erishdi. Ibn Sino esa bolaligida ukasining xoxishiga ko'ra bir muddat yoyandozlik (yoy otish) bilan shuullangan va o'qi nishonga aniq tekkizishi bilan tengdoshlarini lol qoldirgan. Keyinchalik u har qanday dardga aniq tashxis qo'yishi va muolaja qilishi bilan ehtirolfga sazovor bo'lgan. Buyuk matematik va astronom Abu Rayhon Beruniy bolaligida qumga, tuproqqa osmon jismlari joylashishini chizishni yoqtirgan. CHindan ham bolalar o'yinlarida ming bir hikmat bor. Oddiy bekinmashoq o'yini, bolani sanashga o'rgatadi, ko'rish qobiliyatini yaxshilaydi, tez chamalashga, fikrlashga, harakatlanishga undaydi. Yoki arqon bilan sakrash bolaning muvozanat saqlashini, qomatini tik tutishni, butun tana ahzolarining mutanosib harakatlanishini tahminlaydi. O'tgan asrda bolalarning "r" xarfini to'ri

talaffuz qilishi bo'yicha bir qancha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu tavsiyalar to'ri, lekin tabiiyki, bolalar oldingi asrlarda ham tuilgan va ularda "r" harfi talafuzi bo'yicha muammolar bo'lgan. Xalqimiz bu muammoni "Oq terakmi ko'k terak", "Zuv-zuv" kabi o'yinlar orqali bartaraf etgan. CHopish, "Oq terakmi ko'k terak, bizdan sizga kim kerak?" deb qattiq aytish, chuqur nafas olishga "s", "r" harflarining takrorlanishiga ehtibor bering yoki "zuv-zuv" lab yugurish. Bundan keyin nafaqat "r" harfi aniq talaffuz qilingan, balki duduqlar ravon gapira boshlagan. Bu o'yinlar bolalar qo'shiqlari bilan uyunlashgan. SHuning uchun ham yurtimizda bolalarga ehtibor katta, insoniyat yaratgan eng sara meroslar farzandlar salomatligini mustahkamlash, kamolotga yetkazish uchun xizmat qilishi kerak. Biz ota-bobolarimizning shu merosidan yosh avlod to'liq bahramand bo'lishi uchun yetarli shart-sharoit yaratishimiz lozim. Haqiqat shuki, ular aynan bizning yurtimizda, qadam bosayotgan mana shu muqaddas zaminda kamol topganlar,

bashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganlar. Tariximiz, milliy qadriyatlarimiz, ulu siymolar hayotini o'rganishning asosiy maqsadi ham ularga ergashish, yuksak insoniy fazilatlari misolida hayotiy ehtiqodimizni shakllantirishimiz lozim.

## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tadqiqot davrida “Musiqqa madaniyati” darslarida o’quvchilarga o’zbek musiqasining yirik namoyondalari ijodini o’rganish orqali milliy qadriyatlarni shakillantirishni mavzusini o’quvchilarga kompozitorlarni ijodini tanishtirish va qo’shiqlarni o’rgatish va uni tahlil qilish yo’llari orqali singdirish lozim. Bugungi kunda musiqqa sana’tiga ehtibor berish, musiqqa madaniyati darslarida o’quvchilarga qo’shiqlarni to’ri ijro etishni o’rgatish va o’zlashtirish ularning kayfiyatini ko’tarishi, estetik zavq berishini tushuntirish lozim ekan. Buning uchun albatta, qo’shiqlar xarakteri turlicha bo’lishini tushuntirish, musiqqa va ijodkorlar xaqida kengroq ma’lumot berish, qo’shiqlarni badiiy ijro etish, uning uchun puxta tayyorgarlik ko’rish, qo’shiq mazmunini taxlil etish va suhbat o’tkazganimizdagina millat ururi, oriyati va iftixorini, milliy ong hislarining shakllanishiga ijobiy tahsir ko’rstirishni angladim. SHuning bilan birga o’quvchilarda darsga va milliy qo’shiqlarimizdan zavqlanish hissi paydo bo’lishining guvohi bo’ldim. Yuqorida aytib o’tilgan ijobiy natijalarga erishish uchun dastlabki mashulotlarda bir necha bor xatolarga yo’l qo’ydim:

a) Birinchi qo’shiqni ijro ettirganimda birdaniga bir necha topshiriq berdim va natijaga erisha olmadim;

b) So’ngra topshiriqlarni birma-bir berganimda va tushuntirish ishlarini olib borganimdan keyingina ijobiy natijaga erishdim;

v) tushuntirish ishlarini olib bormasimdan avval darsda shovqin va betartiblik bo’ldi;

g) ijobiy natijaga erish uchun reja bilan ishlash va nazariyaga ehtibor berish, topshiriqlarni birin –ketin berish zarurligini tushundim.

Yuqorida aytib o’tilgan tartibda ish faoliyatimni olib borganimdan so’ng darsda tinchlik o’quvchilarda esa darsga qiziqish uyondi. Demak, Musiqqa madaniyati” darslarida o’quvchilarga o’zbek musiqasining yirik namoyondalari ijodini o’rganish orqali milliy qadriyatlarni shakillantirishnida o’quvchilarga kompozitorlarni ijodini tanishtirish va qo’shiqlarni o’rgatish va uni tahlil qilish yo’llari orqali singdirishda o’zbek kompozitorlari asarlari va ijodidan keng foydalanish o’quvchilarda milliy qadriyatlarni shakillantirish bilan birga dars samaradorligini yanada oshiradi..

## **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston, 1998 y.
2. I.A.Karimov Barkamol avlod orzusi T.SHarq 1999 y.
3. I A.Karimov Yuksak mahnaviyat yengilmas kuch.T. 2008 yil
- 4 I.Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimizdir.Xalq so'zi,2010yil 28 yanvarg'."Barkamol avlod yili" davlat dasturi turisida
5. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimizdir.Xalq so'zi,2010yil 28 yanvarg'.
- 6.J.Yo'ldoshev,S.A.Usmonboeva Pedagogik texnologiya asoslari T. O'qituvchi 2004y.
7. O'zbekiston Respublikasining "Tahlim to'risidagi qonuni" T. 1997.
8. Umumiy o'rta tahlimning DTS va o'quv dasturi.
9. J..Yo'ldoshev Tahlim yangilanish yo'lida. T. O'qituvchi 2000 y.
- 10 Nishonova G., Alimova G. Bolalar pisixologiyasi va uni o'qitish metodikasi.
11. J..Yo'ldoshev O'zbekiston Respublikasi tahlimi taraqqiyot yo'lida.T.O'qituvchi 1994
- 12 Qodirov .Q. Boshlanich maktabda ovozli kuylash.
13. O.To'raeva K.Xoliqberdiev Pedagogika. T.O'qituvchi 2001 y.
14. A.K.Minavvarov Pedagogika T. 1996.
- 15 O.Xasanboeva, J.Xasanboev, N.Nomidov Pedagogika tarixi. T. 2004 y.
16. Tursunov G.Xalq tahlimining dolzarb muammolari. T. O'qituvchi 1996 y.
17. Teshaboev T. Jamiyatda o'qituvchini o'rni.T. 2000 y.
18. Akbarov I. Musiqa luoti. T.O'qituvchi 1997 y.
19. O.Iborximov va boshqalar 7-sinf uchun darslik, .ulom nashriyoti. 2002 y.
20. D.A.Karimova Musiqiy pedagogik mahorat asoslari o'quv qullanma. T. 2008 y.
21. SHaripova G.Musiqa o'qitish metodikasi. Mahruzalar matni. 2000 y.

22. Zimina A.N.Osnovq muzqkalg'nogo vospitaniya i razvitiya. M. 2000 y.
23. Fayziev O.O'quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirish. T. 1992 yi.
24. X.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1997 y.
25. SHaripova G.M. Musiqa va uni o'qitish metodikasi. T.Turon-Istiqbol 2006 y.
- .
26. N.Norxo'jaev, H.Rahimov O'zbekiston Vatanim manim. T. 1999 y.
27. G.SHaripova musiqqa o'qitish metodikasi T. 2006
28. O.Ibrohimov,J.Sadirov 7-sinf musiqqa darsligi T. 2008 .ulom nashryoti
29. O.Ibrohimov O'zbek xalq musiqqa ijodi.T. 1997 y.
30. Maqomat.O.Matyoqubov Musiqqa nashriyoti T. 2004 y.
- 31.www. Ziyonet
- 32.http://www//urairti//ru

Illovalar.